



O'QUVCHILARDA HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA LOYIHACHILIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Yusupova Laziza Nodirjon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jismoniy madaniyat yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lif-tarbiya jarayonida o'quvchilarda hamkorlik texnologiyasi asosida loyihachilik qobiliyatini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Hamda o'quvchilarning mustaqil izlanish layoqatlarini rivojlantirishda hamkorlik texnologiyasining o'rni va ahamiyati borasidagi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lif-tarbiya jarayoni, hamkorlik pedagogikasi, hamkorlik texnologiyasi, loyihachilik qobiliyati, mustaqil izlanish layoqati.

Bugungi mamlakatimiz ta'liming yetakchi maqsadlaridan biri - O'zbekiston davlati va jamiyati uchun foyda keltiradigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan barkamol shaxsni voyaga yetkazishdan iborat. Bu borada g'arb mutafakkir R.Emerson shunday deydi;-“Taraqqiyotning chinakkam belgisi-boylig va ta'lif darajasi emas, shaharning kattaligi ham emas, balki shu o'lka bag'rida tarbiya topgan inson qiyofasidadir”. Darhaqiqat, bugungi ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar yangicha demokratik qadriyatlar hamda innovatsion texnologiyalarga asoslanadi. Mana shu asoslar har bir o'quvchini kelajakda mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Umumta'lif maktablarida dars jarayonida hamkorlik texnologiyalaridan foydalanish bu jarayon sub'ektlaridan faollikni talab etadi. Hamkorlik texnologiyasida loyihachilik qobiliyatini rivojlantirish esa nafaqat o'qituvchi va o'quvchi yoki o'quvchi va o'quvchining munosabatida, balki o'quvchini o'rab turgan muhit – ota-onalar, bobo-buvilar, qo'ni-qo'shnilarini ham hamkorlikka chorlaydi. Chunki bu jarayonda o'quvchi nafaqat maktabda, balki oilada, mahallada, jamiyatda va davlat miqyosida faoliyatlarni loyihalashtirishi mumkin.

O'quvchining loyihalichik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun mактаб jamoasi keng ko'lamlı pedagogik chora-tadbirlarni qo'llash va alohida tadbirlarni tashkil etishi talab etiladi.

Bu jarayonda o'quvchilarning bajarilishi talab qilinadigan ishlar ularning tayyorgarlik darajalari, yosh xususiyatlari va qiziqashlariga muvofiq kelishi lozim.



Bu o‘rinda asosiy narsa o‘quvchilarning faoliyatlarini tashkil etishda barcha pedagogik-psixologik yondashuvlarga rioya qilishdan iborat. Bunday ishga ota-onalarni ham jalg qilinishi muhimdir. O‘qituvchilar ota-onalarga o‘z farzandlari bilan hamkorlik qilishlari qanchalik muhim ekanligini ko‘rsata olishlari zarur. Ular o‘z farzandlariga ko‘maklashishlari va ularni qo‘llab-quvvatlashlari lozim. Chunki shu yo‘l bilan to‘laqonli shaxsni shakllantirishga erishiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarda hamkorlik texnologiyasi asosida loyihachilik qobiliyatini shakllantirishda ularga amaliy topshiriqlar berishi va uni doimiy ravishda rivojlantinrib borishi darkor. Bu to‘g‘risida qadimgi Chin hikmatlarida shunday yozilgan:-“Menga aytинг- men unutaman, menga ko‘rsating-men eslab qolaman, menga shuni o‘zimda bajartiring – u hamisha meniki bo‘lib qoladi”.

Loyihachilik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun o‘qituvchi ijodiy yondashishi hamda bugungi kun davr qarashlari bilan hamnafas ishlashi darkor. Bu faqat ularda loyihachilik qobiliyatini, balki istiqbolda yangi ixtirolarning mualliflarini yuzaga chiqaradi. Masalan, yuqori sinflarda o‘quv jarayonida bo‘lgani kabi ko‘proq o‘quvchilar mustaqil faoliyatga asoslaniladi. Bu o‘rinda uydagidek sharoitdalarda ishlaydilar. Tajriba ishlarining asosiy yo‘nalishlari-o‘quvchilarning mustaqil izlanish layoqatlarini rivojlantirish, o‘quv-tarbiya jarayonida hayotiy vazifalarni yechish ko‘nikmasini egallashlariga ko‘maklashishdan iborat.

Shu maqsadda o‘quvchilarga bir qator layihalashga doir ishlar taqdim qilinadi. Masalan, “Siz kelajakda ta’lim olayotgan ta’lim muassasangiz qanday ko‘rinishda bo‘lishini hohlaysiz? Sizga dars berayotgan o‘qituvchilarning bilim va madaniyat darajasini biror-bir qiyofada aks ettirib bera olasizmi” mazmunidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilib, ularni istiqboldagi rejalarini idrok etishga yoki ularda loyihachilik qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Bunda o‘quvchi kelajakdagi maktabining tuzilish shakli, sinf xonalarining jihozlanishidan tortib to o‘quv jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning ishtrokinи ham loyihalashtirib keladi. Hamda o‘z idealidagi o‘qituvchisining qiyofasini ham tasvirlashga harakat qiladi. Bunda unga albatta oila a’zolari ham yordam beradi.

Maktabda loyihalarni amalga oshirish sinflar doirasida tashkil etilib, o‘quvchilar o‘z ishlarini sinfdoshlari oldida himoya qiladilar. O‘quvchilarning bajargan ishlari bilan ko‘rgazmalarda o‘qituvchilar, ota-onalar, ularning maktabdoshlari tanishishga muvaffaq bo‘ladilar. Bu jarayon albatta o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-onalar o‘zaro hamkorligi asosida amalga oshiriladi va ushbu jarayondagi ijodkorlik loyihachilik qobiliyatini rivojlantirishda asosiy tarkibiy qism hisoblanadi. Shu bilan birga bu holat tadqiqotchilik xarakteriga ham ega bo‘lib,



o‘quvchida bir yo‘la ikki-uchta xususiyatlarni shakllanishiga xizmat qiladi. O‘quvchilar katta qiziqish bilan o‘zлari uchun noma’lum bo‘lgan, ilgari ko‘rmagan, o‘rganilmagan hodisalar ustida izlanishga kirishadilar. O‘qituvchi loyihalarni bajarishga oid maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni o‘tkazar ekan, o‘quvchilar uchun ma’lum bo‘lgan o‘quv materiallariga tayanadi. Shu tariqa, darsdan tashqari vaziyatlarda o‘quvchilar bilan faoliyatli o‘zaro hamkorlikdagi munosabatlarga kirishilib, ularning darslarda aniq bilimlar va tushunchalarni ijodiy o‘zlashtirishlari uchun qulay sharoit yaratiladi.

Loyihachilik qobiliyatini shakllantirish hamda o‘quv yili davomida uni bosqichma-bosqich rivojlantirib borish o‘quvchini tayyor mutaxassis sifatida yuzaga keltiradi. Shu bilan birga unda hamda uni o‘rab turgan muhitda hamkorlik, hamjihatlilik, hamfikrlilik kabi tuyg‘ular ham qaror topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Haqiqat manzaralari: 96 mumtoz faylasuf (taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar), T.: “Yangi asr avlodи”, 2002, 240-bet.
2. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari //o‘quv qo‘llanma// T. «Fan», 2006.
- 3.Quronov.M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz... .T. “Ma’naviyat”, 2014, 22-bet.
- 4.Hasanboyev J., To’raqulov X. Pedagogika nazariyasi fanidan izohli lug’at.-T.: “Fan”, 2008, 182-bet.